

O'ZBEKISTONDA KURASHNING PAYDO BO'LISHI.

Xomudjonova Feruza Komiljon qizi.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy
madaniyat kafedra mudiri dotsent.*

Akramova Sevinch.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy
madaniyat yunalish 2- bosqich talabasi.*

Annotatsiya.

Kurash butunjahon nigohiga tushib, davrug' va shuhrat qozonayotgan, o'zining muhlislariga va boy tarixga sport turi hisoblanadi. O'zbekistonda kurashning tup negizi ota bobolarimizdan qolgan an'ana desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu tariqa bizdan keyingi yosh avlod hayotini ham bu sport turi bilan mujassamlashtitishimiz lozim.

Kalit so'zlar: Kurash, tarix, mashg'ulotlar, polvonlar, qonun - qoida, an'analar, barkamol avlod.

Kirish.

Zarafshon, Surxon, Farg'ona vohalarida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari tufayli topilgan arxeologik topilmalardan shuni aniqlashadiku, kurashning yoshini 2, 5 - 3 ming yildan ziyodligini isbotlaydi. Bu topilmalarda jinni sopol buyumlarga chizilgan suratlar ikki kurashchi bir birini oyog'idan chalib yiqitayotganligi tasvirlangan hisoblanadi. Bu ham kurash qadim o'tmish tarixga ega ekanligini ta'kidlaydi. Qadimgi lavhalarda ham kurash hatti harakatlari keltirilgan. O'zbek xalqi qadimdan ham kurash sport turi bilan bayramlarda sayllarda bellashuvlar olib borishgan. Bu kabi bayramlarda keksalarning boshchiligi bilan kurash musobaqalari olib borilgan.

Asosiy qism.

Kurash sporti bizni milliyligiz, an'analarimiz ramzi hisoblanadi. Bu sport turi orqali davlatimiz dunyoga tanitadigan polvonlar yetishib chiqmoqda. Sharq adabiyoti durdonalari bo'lmish, „ Qomusnoma“, „ Boburnoma“, „ shohnoma singari asarlarda ham kurashga oid rasmlar mavjud hamda bu sport turi insonni sog'ligini mustahkamlashi bilan bir qatorda ruhiy poklikka olib kelishi ham keltirib o'tilgan. Alisher nNavoiy bobomiz ham o'z davrida yurtini yetti iqlimga dovrug'ini taratayotgan polvonlar bahsini kuzatgan va huzrlangan. Shuning uchun ham polvonlar hayotiga oid qiziq voqialar ham asarlarda o'z aksini topgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. O'z davrining buyuk sarkardasi bo'lmish Amer Terur ham askarlariga qilichbozlik bilan bir qatorda, kurash tushish sir asrorlarini o'rgatganlar. Bu ham kurashning ilk rivojlanish bosqichlari hisoblanadi.

Ta'rixiy voqialar shunday ma'lumotlar beradiki hatto usha davrlarda ikki mamlakat urish boshlanishidan oldin qo'shin sarkardalari yakkama yakka qilichlarsiz chang qilishgan ya'ni kurashishgan degan ma'lumotlar ham mavjud. Bu tariqa kim kuchli ekanligini butun askarga ko'rsatib qo'yishib jangda g'olib bo'lgan sarkarda askarlari ham ruhiy g'alabani tuyishgan. Shu tariqa kurash asrlar osha sayqallanib, rivojlanib bizgacha yetib kelgan.

Xulosa.

Kurash tarux boy va ma'naviy saviyaga ega sport turi hisoblanadi. Kurashchilar o'zlarini sarviqomat yelkalari, bilaklari bilan ajralib turishadi. Har bir sportchi kurash bilan shug'ullanishdan avval uning tarixini, qonun - qoidalarini va nazariyasini yaxshilab o'rganishi lozim. Mustaqillik yellaridan beri olib borilayotgan kurash musobaqalarida bir qancha polvonlarimiz O'zbekiston bayrog'ini ko'kka ko'tarib kelishmoqda. Buning negizida esa ota bobolarimizga bo'lgan sadoqat, qa'dimiy an'analarimiz yotadi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu tariqa biz ham o'sib borayotgan yosh avlodni ham ruhan, ham jismonan, ham qadriyatlarimizga sodiq, barkamol qilib o'stirishimiz uchun kurash sport turiga qiziqtirishimiz bu sportga jalb etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1- F. A. Kerimov. „ Kurash nazariyasi va uslubiyati“.
- 2- R. S. Salomov. „ Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari“.
- 3- Zaxiriddin Muhammad Bour. „ Boburnoma“.
- 4- K. Yusupov. „ Xaqaro kurash qonun qoidalari texnikasi va taktikasi“.